



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalimirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHİYATIGA TA’SIR
ETUVCHI MAKROIQTISODIY VA MIKROIQTISODIY OMILLARNI KOMPLEKS
BAHOLASH**

**КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И
МИКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЭКСПОРТНЫЙ
ПОТЕНЦИАЛ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.**

**COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF MACROECONOMIC AND MICROECONOMIC
FACTORS AFFECTING THE EXPORT CAPACITY OF AGRICULTURAL
ENTERPRISES**

No‘monov Otabek O‘rmonjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatning iqtisodiy siyosati, valyuta kursi barqarorligi, inflyatsiya darajasi, soliq tizimi kabi makroiqtisodiy omillar hamda korxonalarning ishlab chiqarish quvvati, innovatsion faolligi, boshqaruv samaradorligi va marketing strategiyalari kabi mikroiqtisodiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Agrotadbirkorlik, eksport salohiyati, makroiqtisodiy omillar, mikroiqtisodiy omillar, raqobatbardoshlik, xalqaro bozor, iqtisodiy tahlil, klasterlashuv, innovatsiya

В данной статье комплексно анализируются макроэкономические и микроэкономические факторы, влияющие на экспортный потенциал агропредпринимательских субъектов. Исследование охватывает такие макроэкономические факторы, как государственная экономическая политика, стабильность валютного курса, уровень инфляции и налоговая система, а также микроэкономические факторы, включая производственные мощности предприятий, инновационную активность, эффективность управления и маркетинговые стратегии.

Ключевые слова: Агробизнес, экспортный потенциал, макроэкономические факторы, микроэкономические факторы, конкурентоспособность, международный рынок, экономический анализ, кластеризация, инновации

This article provides a comprehensive analysis of macroeconomic and microeconomic factors influencing the export potential of agribusiness entities. The study examines macroeconomic factors such as government economic policy, exchange rate stability, inflation level, and tax system, as well as microeconomic factors including production capacity, innovation activity, management efficiency, and marketing strategies.

Keywords: Agribusiness, export potential, macroeconomic factors, microeconomic factors, competitiveness, international market, economic analysis, clustering, innovation

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlarining integratsiyalashuvi agrotadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatiga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni qayta ishlovchi korxonalar uchun eksport bozorlari nafaqat daromad manbai, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘lishini ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u xalqaro savdo, makroiqtisodiy barqarorlik va korxona darajasidagi boshqaruv tizimlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu mavzuni yoritishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy konsepsiyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda milliy strategik hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro iqtisodiy nazariyada eksport salohiyati va raqobatbardoshlik masalalari M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan “raqobat ustunligi nazariyasi”da chuqur tahlil qilingan [1]. Unga ko‘ra, korxona va tarmoqlarning xalqaro bozordagi muvaffaqiyati ishlab chiqarish omillari, talab sharoiti, bog‘liq tarmoqlar va firmalar strategiyasiga bevosita bog‘liqdir. Bu yondashuv agrotadbirkorlik subyektlari eksportini tushuntirishda mikroiktisodiy asos sifatida keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, P. Krugman va boshqa yangi xalqaro savdo nazariyasi vakillari eksport oqimlarini masshtab samaradorligi, transport xarajatlari va bozor nomukammalligi bilan izohlab, davlat siyosatining ahamiyatini ham ta’kidlaydi [2]. Bu yondashuv agrar mahsulotlar eksportida logistika va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining muhimligini asoslaydi.

Makroiqtisodiy omillarni tahlil qilishda IMF (Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi) va **World Bank (Jahon banki)**ning yillik hisobotlari muhim manba hisoblanadi. Jumladan, “World Economic Outlook” va “Doing Business” hisobotlarida soliq siyosati, biznes muhiti, valyuta barqarorligi va institutsional sifatning eksportga ta’siri keng yoritilgan [3].

Agrar sektor rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalarida FAO (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) hisobotlari muhim o‘rin tutadi. FAO ma’lumotlariga ko‘ra, agrar eksport samaradorligi ishlab chiqarish texnologiyalari, resurslardan foydalanish samaradorligi va global qiymat zanjirlariga integratsiya darajasi bilan belgilanadi [4].

Mahalliy adabiyotlar orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, xususan, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da agrar sektorni modernizatsiya qilish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va klaster tizimini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [5].

Ushbu ilmiy tadqiqotda agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy omillarni kompleks baholash maqsadida ilmiy izlanishning zamonaviy va klassik metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish, omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda empirik ma’lumotlar asosida ilmiy xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tahlillar asosida eksport salohiyati faqat ishlab chiqarish hajmi yoki alohida korxona faoliyatiga emas, balki butun iqtisodiy tizimdagi barqarorlik va institutsional muhitga bog‘liqligi aniqlangan.

Makroiqtisodiy omillar ichida inflyatsiya darajasi muhim o‘rin egallaydi. Tahlil natijalariga ko‘ra, inflyatsiya yuqori bo‘lgan sharoitda agrar mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlari ortadi, bu esa eksport narxlarining oshishiga va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi. Inflyatsiya past va barqaror bo‘lgan iqtisodiyotlarda esa eksport hajmining o‘sishi kuzatiladi, chunki ishlab chiqaruvchilar uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Valyuta kursining barqarorligi ham eksport salohiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy valyuta kursining keskin tebranishi eksport qiluvchilar uchun noaniqlikni oshiradi va shartnomaviy munosabatlarni murakkablashtiradi. Aksincha, barqaror valyuta kursi eksport strategiyalarining mustahkamlanishiga va tashqi bozorlarda ishonchning oshishiga xizmat qiladi.

Soliq va bojxona siyosati tahlili shuni ko‘rsatdiki, imtiyozli soliq rejimi va soddalashtirilgan bojxona tartibotlari agrotadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi. Yuqori ma’muriy to‘siqlar esa eksport jarayonlarini sekinlashtiradi va qo‘shimcha xarajatlarni oshiradi. Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va eksport sug‘urtasi kabi instrumentlar mavjud bo‘lgan iqtisodiyotlarda agrar eksport hajmi nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

Mikroiqtisodiy omillar tahlilida korxonalarning ishlab chiqarish quvvati va texnologik darajasi asosiy rol o‘ynashi aniqlandi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar mahsulot sifatini oshirish va tannarxni kamaytirish orqali xalqaro bozorda raqobat ustunligiga ega bo‘ladi.

Innovatsion faollik ham eksport salohiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Yangi mahsulot turlarini joriy etgan va qayta ishlash darajasini oshirgan korxonalar eksport geografiyasini kengaytirishga muvaffaq bo‘lgan.

Marketing strategiyalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, xalqaro bozorni chuqur o‘rganish, brending va mahsulotni diversifikatsiya qilish eksport samaradorligini oshiradi. Marketing faoliyati sust bo‘lgan korxonalarda esa eksport hajmi nisbatan past darajada qolmoqda.

Logistika tizimi ham muhim omil sifatida aniqlangan bo‘lib, transport xarajatlarining yuqoriligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi eksport jarayonlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Logistika tizimi rivojlangan hududlarda esa mahsulot yetkazib berish tezligi va xarajat samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada aniqroq yoritish maqsadida quyidagi tahliliy jadval ishlab chiqildi. Ushbu jadvalda asosiy omillar, ularning ta‘sir yo‘nalishi hamda eksport salohiyatiga ko‘rsatadigan natijaviy ta‘siri umumlashtirilgan.

1-jadval. Makroiqtisodiy omillarning agrotadbirkorlik eksport salohiyatiga ta‘siri

Makroiqtisodiy omil	Ta‘sir mexanizmi	Eksport salohiyatiga ta‘siri
Inflyatsiya darajasi	Ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi	Yuqori inflyatsiya eksport raqobatbardoshligini pasaytiradi
Valyuta kursi	Daromad va xarajatlar nisbati o‘zgaradi	Barqaror kurs eksportni rag‘batlantiradi
Soliq siyosati	Korxona xarajatlari va foyda darajasiga ta‘sir qiladi	Imtiyozli soliq eksportni oshiradi
Bojxona tartibotlari	Eksport jarayonining tezligi va xarajatlari	Soddalashtirilgan tizim eksportni tezlashtiradi
Davlat subsidiyalari	Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	Eksport hajmini sezilarli oshiradi

Tahlil natijalariga ko‘ra, makroiqtisodiy barqarorlik mavjud bo‘lgan sharoitda agrotadbirkorlik subyektlari uzoq muddatli eksport strategiyalarini shakllantirish imkoniga ega bo‘ladi. Aksincha, beqaror iqtisodiy muhit eksport jarayonlarini qisqa muddatli va risklik holatga olib keladi.

Mikroiqtisodiy omillar esa korxona ichki imkoniyatlarini belgilab beradi. Quyidagi jadvalda ushbu omillar batafsil yoritilgan.

2-jadval. Mikroiqtisodiy omillarning agrotadbirkorlik eksport salohiyatiga ta‘siri

Mikroiqtisodiy omil	Tavsif	Eksportga ta‘siri
Ishlab chiqarish quvvati	Korxonaning ishlab chiqarish hajmi	Yuqori quvvat eksport hajmini oshiradi
Texnologik daraja	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	Sifat va raqobatbardoshlikni oshiradi
Innovatsion faollik	Yangi mahsulot va usullar joriy etish	Bozorni kengaytiradi
Marketing strategiyasi	Bozorni o‘rganish va brending	Eksport geografiyasini kengaytiradi
Logistika tizimi	Tashish va saqlash infratuzilmasi	Yetkazib berish tezligi va xarajatlarni kamaytiradi
Boshqaruv sifati	Menejment samaradorligi	Qaror qabul qilish tezligi va samaradorlikni oshiradi

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mikroiqtisodiy omillar korxonaning ichki raqobatbardoshligini belgilaydi. Ayniqsa, texnologik modernizatsiya va innovatsion faoliyat eksport salohiyatini oshirishda eng kuchli ta’sirga ega omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion faollik darajasi va eksport hajmi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Bu shuni anglatadiki, innovatsiyalarga investitsiya kiritgan korxonalar xalqaro bozorda barqaror raqobat ustunligiga ega bo‘ladi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar kompleks tahlil qilindi. O‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar natijasida shuni qayd etish mumkinki, eksport salohiyati ko‘p omili iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi tashqi iqtisodiy muhit hamda ichki korxona imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, tadqiqot davomida klasterlashuv tizimi va raqamli transformatsiya jarayonlari agrar eksportni rivojlantirishning eng muhim zamonaviy mexanizmlari ekanligi asoslandi. Ushbu omillar ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish orqali eksport samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni.
2. Urmonvich, Numonov Otabek. "The role of institutional innovations and economic incentives in enhancing the export potential of agro-entrepreneurship entities in uzbekistan." *models and methods for increasing the efficiency of innovative research* 5.53 (2026): 12-17.
3. Porter M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press, 1985.
4. Krugman P. R., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education, 2018.
5. IMF. *World Economic Outlook Report*. International Monetary Fund, 2024.
6. No‘monov, Otabek. "Agrotadbirkorlik subyektlarida eksport logistikasi va ta’minot zanjirini optimallashtirishning iqtisodiy mexanizmlari." *Muhandislik va iqtisodiyot* 4.3 (2026).